

## ONA TILI VA ADABIYOT FANINI O`QITISHDA YANGI INNOVATSION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

*Ismailova Nilufar Abdumalikovna*

*Namangan viloyati Davlatobod tumani 79-maktab ona tili va adabiyot fani  
o`qituvchisi*

**Annotatsiya.** Maqolada o'quvchilarga onat tili va adabiyot fanini o'qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanishning afzalliklari, imkoniyatlari haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** Ona tili o'qitish metodikasi, pedagogik texnologiya, metod, innovatsiya, gap bo'laklari, kesim.

**Abstract.** The article discusses the advantages and possibilities of using innovative technologies in the formation of the morale of elementary school students. Also, the author has shown the ways to achieve the formation of spiritual and moral education of the pupils of preschool educational institutions.

**Key words:** Methodology of mother tongue teaching, pedagogical technology, method, innovation, sentence fragments, section.

**Аннотация.** В статье рассматриваются преимущества и возможности использования инновационных технологий в формировании морального духа учащихся начальной школы. Также автор показал способы достижения формирования духовно-нравственного воспитания воспитанников дошкольных образовательных учреждений.

**Ключевые слова:** Методика обучения родному языку, педагогическая технология, метод, инновация, фрагменты предложений, раздел.

O'zbekistonning mustaqil davlat sifatida jahon hamjamiyatida o'zining munosib o'rnini egallashi jahonning turli rivojlangan mamlakatlari bilan siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy ta'lim sohasida o'zaro hamkorlikni o'rnatishi katta yutuqlarga olib keldi. Mustaqillikdan keyin o'tgan qisqa davr ichida ta'lim tizimida juda katta o'zgarishlar bo'ldi, olamshumul kashfiyotlar va yutuqlarga ega bo'ldik. Ma'lumki, fan va ta'lim doimo birlikda va o'zgarishda rivojlanadi. Ta'lim tizimini yanada rivojlantirish, xorijiy mamlakatlarning tajribasini chuqur o'rgangan holda zamonaviy metodlar va texnologiyalar asosida o'qitish masalalariga hukumatimiz tomonidan berilayotgan e'tibor juda katta bo'lmoqda. Innovatsion va pedagogik texnologiyalarning mamlakatimiz ta'lim sohasiga kirib kelishi - bu ta'limda tub burulish davri bo'ldi deb aytsak mubolag'a bo'lmaydi. Innovatsion texnologiya va metodlar bu o'quv jarayonida asosiy boshqaruvchi -o'qituvchi, boshqariluvchi - o'quvchifaoliyati birgalkda yo'naltiriladi va bu jarayonda o'qituvchidan ham o'quvchidan ham mustaqillik va ijodkorlik sifatlarini talab etadi. Hozirgi kunda ta'lim tizimida qo'llanilayotgan innovatsion texnologiya va metodlar o'quvchilarning yuksak bilim cho'qqilarini egallab, ularni fikrlashga, o'z shaxsiy va mustaqil qarashlarga ega bo'lishida katta ahamiyat kasb etmoqda. Har bir o'qituvchi dars o'tishdan oldin darsda qo'llaydigan innovatsion pedagogik

texnologiyalarning har bir elementigacha puxta o'rganishi va tadqiq qilishi lozim. Pedagog - ya'ni bola yetaklovchi, bolaga faqat tayyor fikr bermasligi kerak balki uning fikrini kengaytirishi, olamni o'rganishga imkon beruvchi vositalarni topa bilishga o'rgatishi zarur. Biz bir necha zamonlar an'anaviy uslubda ish olib bordik.[1]To'g'ri, bu tizimda ham bolalarga bilm berildi, o'quvchilarning bilm, ko'nikma va malakalari shakllantirildi. O'qituvchi ham o'quvchi ham bir qobiqda harakat qildi, buni qoliqlangan tizim desak ham bo'ladi, har ikkalasida ham ma'suliyat yo'qoldi. Hozirgi kunda asosiy pedagogik texnologiyalar imperik, kognitiv, evristik, kreativ, inversion, adattiv, inkulyuziv va boshqa texnologiyalardir.

Dars jarayonida bu texnologiyalarni tanlay bilish – bu o'qituvchining mahoratiga bog'liq.

Ona tili o'qitish tamoyillari 5 ta:

1. Til materiyasiga, nutq organlarining o'sishiga, nutq malakalarinikg to'g'ri rivojlanishiga e'tibor berish tamoyili. Nutq, til qonuniyatlariga, oz bo'lsa-da, e'tibor bermaslik amaliy nutq faoliyatini egallashga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Masalan, fonetik ko'nikmalarga yetarli e'tibor berilmasa imloviy savodxonlikka putur yetadi. Bu ta'lim tamoyili tildan olib boriladigan

mashg'ulotlarda eshtuv va ko'ruv kursatmaliligini ta'minlashni va nutq organlarini mashqlantirishni (gapirib berish, ifodali o'qishni ichida, gapirishni) talab etadi.

2. Til ma'nolarini (leksik, grammatik, morfemik, sintaktik ma'nolarini) tushunish prinsipi.

So'zni, morfemani, so'z birikmasini, gapni tushunish borliqdagi ma'lum voqea-xodisalar o'rtasidagi bog'lanishni aniqlash demakdir. Til ma'nolarini tushunish tamoyiliga amal qilishning sharti tilning xamma tomonlarini, tilga oid barcha fanlar (grammatika, leksika, fonetika, orfografiya, stilistika)ni o'zaro bog'langan xolda o'rganish xisoblanadi. Masalan, morfologiyani sintaksisga tayangan holdagina o'rganish, o'zlashtirish mumkin. Sintaksisni o'rganishda esa morfologiyaga suyaniladi, orfografiya fonetika, grammatika, so'z yasalishiga suyanadi va x.q. So'zni morfemik tomondan tahlil qilish uning ma'nosini tushunishga yordam beradi. Tilning xamma tomonlari bir-biri bilan o'zaro bog'langan bo'lib, o'qitishda buni albatta xisobga olish kerak.

3. Tilga sezgirlikni o'stirish prinsipi. Til - juda murakkab xodisa, uning tuzilishini, sistemasini fahmlab olmay turib, sal bo'lsa-da, uning qonuniyatlarini, o'xshashliklarini o'zlashtirmay turib uni yodda saqlab bilmaydi. Bola gaplashish, o'qish, eshitish bilan til materiallarini yig'adi,uning qonunlarini o'zlashtiradi. Natijada kishida tilga sezgirlik (til xodisalarini tushunish) xususiyati shakllanadi : tilni egallash mumkin emas.

4. Nutqning ifodaliligiga baho berish tamoyili. Bu tamoyil til hodisalarini tushunmay turib savodli yozish, nutq madannyati vositalarining xabar berish funksiyasini tushunish bilan bir qatorda, uning ifodalilik (uslubga oid) funksiyasini tushunishni, mazmuninigina emas, balki so'z va nutq oborotlarining, tilning boshqa badiiy-tasviriy vosi talarining hissiy ottenkalarini ham tushunishni kuzda tutadi. Bu

tamoyilga amal qilish uchun, birinchi navbatda, badiiy adabiyotlardan, shuningdek, tilning funksional-stilistik xususiyatlari aniq ifodalangan boshqa matnlardan foydalanish talab etiladi.

5. Og'zaki nutqni yozma nutqdan oldin o'zlashtirish tamoyili. Bu tamoyil xam kishi nutqining rivojlanishiga ta'sir etadi va til o'qitish metodikasini tuzishda xizmat qiladi.

Metodika tamoyillari, didaktika tamoyillari kabi o'qituvchi bilan o'quvchining maqsadga muvofiq; faoliyatini belgilashga, ularning birgalikdagi ishlarida qulay yo'nalishini tanlashga yordam beradi, metodikaning fan sifatida nazariy asoslash elementlaridan biri bo'lib xizmat qiladi. Diktant - orfografik va punktuatsion xatolarni nazorat qilishning asosiy shakllaridan biridir. Diktantlar uchun bog'lovchi matnlarni qo'llash maqsadga muvofiqdir, ular zamonaviy adabiy til me'yorlariga javob berishi kerak, mazmuniga ko'ra butun sinf o'quvchilariga oson bo'lishi kerak. Diktantning hajmi quyidagicha belgilanadi: 5-sinflar uchun -90-100 so'z, 6-sinflar uchun -100-110, 7-sinflar uchun -110-120, 8-sinflar uchun -120-150, 9-sinflar uchun -150-170 so'z. (Hisoblashda ham mustaqil, ham yordamchi so'zlar inobatga olinadi). Nazorat lug'aviy diktant tekshirilmaydigan va qiyin tekshiriladigan orfogrammali so'zlarning o'zlashmasini nazoratga mo'ljallangan yozma ish turi hisoblanadi. U quyidagi miqdorda so'zlardan iborat bo'ladi: 5-sinflar uchun -15-20, 6-sinflar uchun -20-25 so'z, 7-sinf uchun -25-30, 8-sinf uchun -30-35, 9-sinf uchun -35-40 so'z. Ma'lum mavzu bo'yicha o'quvchilarning tayyorgarligini nazorat uchun diktant asosiy orfogrammalarini va punktogrammalarni o'z ichiga olishi kerak, shuningdek oldin o'zlashtirilgan ko'nikmalarning mustahkamligini topishga yordam beradi. Chorak va yil yakunida o'tkaziladigan yakuniy diktantlar barcha o'tilgan mavzular bo'yicha o'quvchilarning tayyorligini tekshiradi. Nazorat diktantlari uchun orfogrammalar va punktogrammalar 2-3 holatda qo'llanilgan matnlar tanlanishi kerak. Avval o'tilgan orfogrammalar va punktogrammalardan asosiylari olinadi: ular 1-3 holatlar bilan ko'rsatilishi kerak. Tekshiriladigan orfogrammalar 5-sinfda 12 ta turli orfogrammalaridan va 2-3 ta punktogrammadan oshmasligi kerak, 6-sinfda 16 ta turli orfogrammalaridan va 3-4 ta punktogrammalardan oshmasligi kerak, 7-sinfda 20 ta turli orfogrammalaridan va 4 - 5 ta punktogrammalardan, 8-sinfda 24 ta orfogrammalaridan va 10 ta punktogrammalardan, 9-sinfda 24 ta turli orfogrammalaridan va 15 ta punktogrammalardan oshmasligi kerak. Nazorat diktantlari matniga yetarli darajada mustahkamlangan orfogrammalar kiritilishi mumkin.

Ma'lumki, esse erkin fikrning - mustaqil tafakkurlarning mahsuli. U ijod. Ona tili va adabiyot darslarida insho yozish ham ijod. Insholarning bu ikki turi o'rtasidagi tafovut unchalik kata emas. Bugun ona tili va adabiyoti darslari oldiga o'z fikrini og'zaki va yozma tarzda to'g'ri va ravon bayon qiladigan, kitobxonlik madaniyati shakllangan, mustaqil va ijodiy fikrlay oladigan, o'z g'alar fikrini anglaydigan -muloqot va nutq madaniyati rivojlangan shaxsni kamol toptirishdek yuksak vazifa qo'yilgan. Bu vazifani bajarishda insholarning o'rni beqiyos.

Albatta, insholar ta'lim tizimida o'rganib qolingan an'anaviy tartibda emas, aynan ijodning natijasi tarzida yozilishi kerak. Adabiyot darslarida tanlangan insho

mavzulari o'qituvchi uchun eski bo'lishi mumkin, ammo o'quvchilar uchun yangi ekanligini e'tibordan qochirmaslik lozim.

**Xulosa.** Bunday natijaga erishish amaliyotda o'quv jarayonida innovatsion va axborot texnologiyalarini qo'llashni taqozo etadi. Ular juda xilma-xildir. Hozirgi zamonaviy metodlar yoki o'qitishning samarasini oshirishga yordam beruvchi texnologik darslar o'quvchilarda mantiqiy, aqliy, ijobiy, tanqidiy, mustaqil fikrlashni shakllantirishga, ijobiy fazilatlarni tarbiyalashga va ularning qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi.

#### **Foydalanilgan Adabiyotlar**

1. Ашурова, М. Д., & Мадрахимова, З. М. (2019). Влияние производственных факторов и образа жизни на состояние здоровья работающих. In НАУЧНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ И РАЗРАБОТКИ 2019 ГОДА (pp. 134-143).
2. Хусанбаев, Х. Ш., & Маматхонова, Г. М. (2017). Оценка эффективности новой системы углубленного медицинского осмотра при первичной выявляемости глазных заболеваний. Современные технологии в офтальмологии, (4), 193-195.
3. Маматханова, Г. М., & Шерматова, Г. Т. (2021). Оптимизация медицинской учетной документации и автоматизация отчетностей.
4. Маматханова, Г. (2021). Оптимизация медицинской учетной документации и внедрение электронных систем в здравоохранение. Общество и инновации, 2(8/S), 61-67.
5. Маматханова, Г. М., & Ашурова, М. Д. (2020). КОМПЛЕКСНАЯ ОЦЕНКА ДЕЙСТВУЮЩЕЙ ЭЛЕКТРОННОЙ БАЗЫ ПЕРВИЧНЫХ УЧЕТНО-ОТЧЕТНЫХ МЕДИЦИНСКИХ ДОКУМЕНТАЦИЙ В УЧРЕЖДЕНИЯХ ПЕРВИЧНОГО ЗВЕНА ЗДРАВООХРАНЕНИЯ. Экономика и социум, (2), 506-512.
6. Ашурова, М. Д., Мадрахимова, З. М., & Сайдуллаева, К. М. (2020). ВЫЯВЛЕНИЕ ПРИЧИННО-СЛЕДСТВЕННЫХ СВЯЗЕЙ МЕЖДУ ФАКТОРАМИ РИСКА И ЗДОРОВЬЕМ РАБОТАЮЩИХ. In Университетская наука: взгляд в будущее (pp. 116-120).
7. Ашурова, М. Д., Мадрахимова, З. М., & Атабаев, У. С. (2019). ЭФФЕКТИВНОСТЬ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКОЙ РАБОТЫ В ОБУЧЕНИИ КЛИНИЧЕСКИХ ОРДИНАТОРОВ ПО СПЕЦИАЛЬНОСТИ "ГИГИЕНА ТРУДА". In ИННОВАЦИОННЫЕ ПОДХОДЫ В СОВРЕМЕННОЙ НАУКЕ (pp. 48-52).
8. Ашурова, М. Д. (2017). КОМПЛЕКСНАЯ ОЦЕНКА РИСКА ЗАБОЛЕВАЕМОСТИ РАБОТАЮЩИХ ЗАВОДОВ МИНЕРАЛЬНЫХ УДОБРЕНИЙ. Инновации в образовании и медицине. Материалы IV Всероссийской на, 221.